

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

G'AFUR G'ULOM ASARLARINING AXLOQIY VA TARBIYAVIY

JIHATLARI TAHLILI

Baxtiyorova Farangiz

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro

huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi

farangizbaxtiyorov@gmail.com

Annotation:

G'afur G'ulomning nazm va nasrdagi deyarli barcha asarlari ohangining o'zgachaligi, zarbning milliyligi bilan ajralib turadi. U o'z xalqiga nisbatan chuquq hurmat sohibi edi. Uning har bir asarida xalqni qiyayotgan muommolar aks ettirilgan. Ushbu maqolada G'afur G'ulom she'rlari va asarlarida mavjud axloqiy va tarbiyaviy munosabatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: “Sharaf qo‘lyozmasi” she’ri, A.Oripov fikri, ta’lim imkoniyatlari, takya, “Meninng o‘g‘rigina bolam” asarida tarbiyaviy jihatlar.

Annotation:

Almost all of Gafur Ghulam's works in verse and prose are distinguished by the uniqueness of the tone and the nationality of the composition. He had great respect for his people. In each of his works, the problems that torment the people are reflected. This article analyzes the moral and educational relations in Gafur Ghulam's poems and works.

Key words: the poem “Manuscript of Honor”, A. Oripov’s opinion, educational opportunities, takya, educational aspects in “My Thief’s Child”.

Аннотация:

Почти все произведения Гафура Гулама в стихах и прозе отличаются своеобразием тона и народностью композиции. Он очень уважал свой народ. В каждом его произведении отражены проблемы, терзающие народ. В данной статье анализируются нравственно-воспитательные отношения в стихах и произведениях Гафура Гулама.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ключевые слова: поэма «Рукопись чести», мнение А. Орипова, воспитательные возможности, такъя, воспитательные аспекты в «Моем воровском ребенке».

(Kirish qism)

G‘afur G‘ulom o‘z safdoshlari qatorida g‘oyat murakkab, g‘oyat tahlikali va ziddiyatli bir davrda hayot kechirdi. Sovet Ittifoqi hududida, shuningdek yurtimiz sarhadlarida dong taratgan shoir o‘scha davrning barcha zulmlari, voqeа va hodisalarining guvohi bo‘lgan. Shu sababdanmi uning asarlarini o‘qish orqali darhol o‘scha insoniyat boshiga nihoyatda og‘ir kunlarni solgan “urush” va shuningdek, ayrim jamiyatdagi qusurlar, huquqbazarliklar haqida tasuvvurni boyitadi. Uning asarlarida boshqa ijobjiy voqeа va hodisalar tasvirlangan, albatta. Adib asarlarini huquqiy tahlil qilar ekanmiz, jamiyatda mavjud bo‘lgan “tabaqalashtirish” oddiy aholining bo‘ysunuvchi, huquqlari tobthaluvchilarga aylanib qolganlini kuzatish mumkin. G‘afur G‘ulom asarlari axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ularda o‘sib kelayotgan yoshlarni ilm olishga undash, vatanni sevish va vijonli va adolatli bo‘lishga da’vat mavjud.

(Asosiy qism)

G‘afur G‘ulom o‘zbekning o‘z shoiri deb ta’riflanadi. Darhaqiqat, uning xalqiga, yurtiga bo‘lgan muhabbat ko‘plab asarlarida yorqin ifodasini topgan. Xususan, “Sharaf qo‘lyozmasi” she’ridan shunday misralar keltiriladi.

“Xorazmning har g‘ishtida
Bobolarning ijodi
Anglo-saksonlardan
Ancha yuqoriqoqdir.
Bizda logorifmning
Mushkul muammolari
Qo‘ldagi barmoqlarday
Oddiy qilinganda hal,
Oliy irq davogari
Cherchillning bobolari
Xatto sanay olmasdi
O‘n barmoqni mukammal.
Biz ekkan paxtalardan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Yer yuzida bor kishi
Uyatini yopganda
Ustma-ust, qavat-qavat,
Hozirgi janoblarning
Ma'rifat va donishi
Paxta – daraxt qo'zisin
Juni deb bilgan faqat.

Bu satrlarda shoir yurtining, xalqining naqadar bilimli va zukko ekanligi, ayrim xalqlar uchun sir bo'lgan masalalar bizning xalq uchun osonlikcha bajarilishini ta'kidlaydi. Abdulla Oripov ushbu satrlar haqida "O'zbekning o'z shoiri" maqolasida quyidagi fikrlarni keltiradi. **"Garchand she'rning ikkinchi yarmi boshqa o'zanga qarab ketgan bo'lsa-da, shoirning kimlarga qanday ishoralar qilayotgani shundoqqina sezilib turibdi. Chorasiz shoir millatiga qalqon bo'lgisi keladi. O'zbekistonning sha'niga hanuz katta-kichik toshlar otilib turibdi. Ular endilikda nafaqat shonli o'tmishimiz, balki mustaqillikka erishgan bugungi kunimizni ham ko'rolmayaptilar. Odam bolasi bunchalar ochofat, bunchalar ichi qora bo'lmasa! Prezidentimiz Islom Karimov ayttanlaridek, endi ortga qaytish yo'q, orqadagi ko'priklarni allaqachon yoqib yuborganmiz"**.

Shoirning maqsadi ilm har narsadan kuchlilagini ko'rsatib berishdek tuyuladi. Chunki, juda kuchli davlatlar bilan solishtirganda, kichik davlat ham ilm-ma'rifikatda har qanday kuchli davlatlardan ustun kela oladi. G'afur G'ulomning shaxsiyatiga qaraydigan bo'lsak, bu shaxsning o'zi ham ilmga nihoyatda berilgan edi. Ilmga muhabbati zo'r, "ilm desa mukkasidan ketadigan" shoir ushbu so'zlarni yozib o'tgan: "Agar mening qiroatxonamni bir ko'zdan kechirsangiz, unda hamma ilmlarga aloqador kitoblardan topishingiz mumkin: adabiyot, geografiya, tib, falakiyot, tush ta'birlari, qiyofat ul-bashar (kishining qiyofasiga qarab o'sha odamning qanday fe'l-atvordagi kishilardan ekanini aytib beradigan noyob ilm),

¹ A. Oripov, (1993) , O'zbekning o'z shoiri. Available at: <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/mustaqillik-matbuoti/abdulla-oripov-o-zbekning-o-z-shoiri-1993>



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mezon ul-avzon, soatsozlik, ilmi simiyo (radio kuruvchiga birinchi qo'llanma), issiq-sovuq yo'llari, iksiri a'zam (bu ilmda "suf deb monpasidan brilliant, holvaytardan oltin yasash yo'llar o'rgatiladi), ilmi hayvonot, ishqilib, shundoq-shundoq kitob, ilm xazinalari..."². G'afur G'ulom ham yoshlarni turli ilmga qiziqishi, o'zlarini uchun dunyoning yangi ufqlarini ochishlarini istagan.

G'afur G'ulom qizlarning ta'limini mustahkam va farovon oila poydevori hisoblagan. 1936- yilda yaratilgan "Yodgor qissa" si ham dolzarb oilaviy masalalarni qamrab olgan bo'lib, unda Saodat obrazi orqali har bir xotin-qizlarning ilmli, bilimli va yetuk fikrlovchi va yaxshi tarbiyachi bo'lishlari ahamiyati yoritiladi. Asarda quyidagi jumla qo'llaniladi, "**Kelajakda baxtli bo'lmoqni istagan har bir qiz o'qimog'i kerak**"³. Rostan ham oilada otalardan ko'ra ko'proq onalar bolalar tarbiyasiga ma'sul hisoblanadi. Shu sababli har bir yangi qurilgan oiladan unib-o'sadigan bolalarning kelajagi ham ziyoli onalarga bog'liq. Buguni kunda ham xotin qizlarning ta'limini rivojlantirishning mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, 2022-yili 7-mart kuni "Oila ava xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmoni imzolandi. Ushbu farmonning 3-bandida xotin-qizlar ta'limiga oid quyidagi normalar kiritildi. "Xotin-qizlarga ta'lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab:

- oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta'lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat budgetidan har yili 1,8 trillion so'm resurs mablag'lari yo'naltirilsin.**
- davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash**

² G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. VI jild. Ocherklar, publistika. Toshkent: Fan, 1987. 264-265-betlar.

³ G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021 y. 141-b.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

maqsadida, Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so‘m moliyalashtirilsin.

v) xorijiy oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim dasturlari bo‘yicha — 50 nafar, magistratura ta’lim dasturlari bo‘yicha — 10 nafar xotin-qizlarga har yili “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali qo‘srimcha grantlar ajratib borilsin”⁴ Ammo G‘afur G‘ulom yashagan davrda qarashlar mutlaqo boshqacha edi. Qizlarni o‘qishga kirishi quvonchlanarli hodisa emas edi, ular uchun ta’limda imkonikoniyatlar eshigi yopiq edi. Biroq shoir kabi millat deb jon kuydirgan kimsalar buni qoralagan. Ta’limda teng imkoniyatlar yaratilishi tarafдорлари bo‘lishgan.

Adibning “Shum bola” asarida ham 14 yoshlik bolakay va uning do‘stlari maktab mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish o‘rniga, bozorda savdo qilish, takyada ⁵yugurdaklik qilish va turli -tuman qora mehnat bilan shug‘ullanganliklari keltriladi. Xususan, shum bola takyada xizmat qilib yurgan kezlarida, Xoji boboning noqonuniy savdosini, giyohvand moddalar iste’mol qiluvchilarning yomon odatlarini har kuni ko‘radi va takyaxonada bir necha oy qolib ketadi. Vaholangki, qarashlari endi-endi shakllanayotgan bola uchun shu kabi nosog‘lom muhit o‘zining yomon ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. “Shum bola” asaridagi ushbu sahnalarni ko‘rib, hozirgi dorilamon kunlarga shukrona keltiradi kishi.

(Xulosa)

G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida o‘g‘ri zamon haqida shunday fikr bildiradi: “Qaysi burchakka, qaysi chordevorga bosh suqmang, o‘n beshta yetim yuvuqsiz qo‘lini cho‘zib: “Amaki non bering”⁶, deydi. Bu so‘zlar zamonning achchiq haqiqatlaridan so‘zlaydi. Bugun esa bolalar uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Qanaqa qiziqishlari bo‘lishidan qat’iy nazar, u ota-onan

⁴ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.03.2022-y., 06/22/87/0198-son., <https://lex.uz/uz/docs-5899498>

⁵ Bangixona, giyohvanxona

⁶ G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021 y. 305-b.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tomonidan, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. G‘afur G‘ulom asarlarini hozigi yosh avlod uchun haqiqiy axloq va tarbiya maktabidir. Ular asarlar she’rlardagi keltirilgan voqealardan katta saboq oladilar. G‘afur G‘ulom o‘zining yondaftarida (1965) keltirganidek, “**Zamon – bekorchilarning eng yomon dushmanidir**”⁷.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Oripov, (1993) , O‘zbekning o‘z shoiri. Available at: <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/mustaqillik-matbuoti/abdulla-oripov-o-zbekning-o-z-shoiri-1993>
2. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. VI jild. Ocherklar, publistika. Toshkent: Fan, 1987. 264-265-betlar.
3. G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021 y. 141-b.
4. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.03.2022-y., 06/22/87/0198-son., <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>
5. G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021 y. 305-b.
6. G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021 y. 350-b.

⁷ G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021 y. 350-b.